



UDK 539.238:635.12

## **SHOLG‘OM (*Brassica rapa subsp. rapa L.*) O‘SIMLIGINI QORAQALPOG‘ISTON SHAROYITIDA O‘STIRISHNING AGRONOMIK XUSUSIYATLARI**

**Djalimbetov. M.A.**

*Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
ilmiy-tajriba stansiyasi, Ilimiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor urinbosari*

**Abdigapbarov A.S.**

*Meva-sabzavotchilik va polizchilik kafedrası katta o‘qituvchisi, q.x.f.f.d. (PhD)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17537796>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sholg‘om (*Brassica rapa subsp. rapa L.*) o‘simligining biologik va morfologik xususiyatlari, uning oziqaviy ahamiyati, kimyoviy tarkibi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasining tabiiy-iqlim sharoitida o‘stirish agrotexnikasi o‘rganilgan. Sholg‘omning sovuqqa chidamliligi, qisqa vegetatsiya davri va tuproq sharoitlariga moslashuvchanligi uni mintaqada istiqbolli ekin sifatida e‘tirof etishga asos yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Amudaryo vohasi va Qonliko‘l tumanlari sharoitida o‘rtacha unumdor bo‘lgan allyuvial-tuproqlarda sug‘orish me‘yoriga rioya etilganda sholg‘om ildizmevasi hosildorligi 20–25 t/ga gacha yetadi.

**Kalit so‘zlar:** sholg‘om, *Brassica rapa*, agrotexnika, hosildorlik, Qoraqalpog‘iston, oziqaviy ahamiyat.

**Kirish.** Sholg‘om (*Brassica rapa subsp. rapa L.*) — karamdoshlar (*Brassicaceae*) oilasiga mansub ikki yillik sabzavot ekini bo‘lib, insoniyat tomonidan qadim zamonlardan beri oziq-ovqat va yem-xashak sifatida yetishtirib kelinadi. Arxeologik topilmalar sholg‘omning madaniylashuvi miloddan avvalgi IV–III asrlarga borib taqalishini ko‘rsatadi. Hozirgi kunda u Yevropa, Osiyo va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqlimi keskin kontinental bo‘lib, yozda issiq va quruq, qishda esa sovuq bo‘ladi. Bunday sharoitda qisqa vegetatsiya davriga ega, sovuqqa chidamli sabzavot ekinlarini etistirish muhim ahamiyatga ega. Sholg‘om ana shunday ekologik moslashuvchan o‘simliklar qatoriga kiradi. Uning o‘simkik fiziologiyasi, agrotexnikasi va mahalliy sharoitda hosildorligini aniqlash Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi uchun dolzarb hisoblanadi.

### **Asosiy qism. 1. Sholg‘omning botanik tavsifi**

Sholg‘om ikki yillik o‘simlik bo‘lib, birinchi yili ildizmeva va barglar hosil qiladi, ikkinchi yili esa gul va urug‘ beradi.

Ildizmeva: dumaloq, konussimon yoki cho‘zinchoq shaklda bo‘lib, rangi oq, sariq yoki binafsha tushlarda bo‘lishi mumkin.



Barglari: uzun bandli, patsimon shaklli, sershira va oziqaviy moddalarga boy.

Gullari: sariq tusda, to‘rtbargli, xos karamdoshlar oilasiga xos.

Mevasi: ikki qirrali dukkak bo‘lib, urug‘lari mayda, sferik shaklda.

Vegetatsiya davri 40–60 kunni tashkil qiladi, bu uni tezpishar sabzavotlar qatoriga kiritadi.

## **2. Qoraqalpog‘iston tabiiy-iqlim sharoitining xususiyatlari.**

Qoraqalpog‘iston Respublikasida yoz faslida havo harorati +40 °C gacha yetadi, yomg‘ir kam yog‘adi, suv resurslari asosan Amudaryo va sun‘iy kanallar orqali yetib keladi.

Qish faslida -10 °C gacha sovuq kuzatiladi. Bunday sharoitda sholg‘omning afzalligi shundaki, u sovuqqa chidamli va sug‘orishga tez javob beradi.

Tuproq asosan allyuvial, qumoq yoki sho‘rsiq tusda bo‘lib, organik modda miqdori past. Shu bois sholg‘om yetishtirishda tuproqqa organik o‘g‘itlar (chundi, gumus, kompost) kiritish katta ahamiyat kasb etadi.

## **3. Sholg‘omni o‘stirish agrotexnikasi**

**3.1. Ekin joyini tayyorlash.** Yer kuzda haydalib, bahorda tekislanadi. Har gektar maydonga 25–30 tonna chirindi yoki kompost solinadi.

**3.2. Ekish muddati va usuli.** Sholg‘om urug‘i bahor boshida (mart oxiri — aprel boshida) yoki kechki hosil uchun iyul oyida ekiladi.

Urug‘ ekish chuqurligi 1,5–2 sm, qator orasi 30–40 sm, qator ichida 10–12 sm masofada bo‘ladi.

**3.3. Sug‘orish.** Qoraqalpog‘iston sharoitida vegetatsiya davrida 4–5 marta sug‘orish tavsiya etiladi. Sug‘orish oralig‘i 10–12 kun. Sug‘orish me‘yori — 600–800 m<sup>3</sup>/ga.

**3.4. O‘g‘itlash.** Har gektarga o‘rtacha 60–80 kg azot, 40–50 kg fosfor va 30–40 kg kaliy o‘g‘it beriladi. Ildizmevaning o‘sinh bosqichida azotli o‘g‘itlar alohida muhim rol o‘ynaydi.

**3.5. Kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurash.** Asosiy kasalliklar: **kila (Plasmodiophora brassicae)** va **bakterial chirish**. Ularni oldini olish uchun ekin almashinuvi, sog‘lom urug‘lik va tuproq pH ni nazorat qilish zarur.

**4. Natijalar va muhokama.** Tajriba natijalari Nukus tumanining allyuvial tuproqlarida olib borilgan. Quyidagi natijalar olindi:

Sug‘orish me‘yori (m <sup>3</sup> /ga)	O‘g‘it dozalari (kg/ga)	Hosildorlik (t/ga)
600	N <sub>60</sub> P <sub>40</sub> K <sub>30</sub>	18,5
700	N <sub>80</sub> P <sub>50</sub> K <sub>40</sub>	22,3



Sug‘orish me‘yori (m <sup>3</sup> /ga)	O‘g‘it dozalari (kg/ga)	Hosildorlik (t/ga)
800	N <sub>100</sub> P <sub>60</sub> K <sub>50</sub>	24,7

Eng yuqori hosil 800 m<sup>3</sup>/ga sug‘orish me‘yori va N<sub>100</sub>P<sub>60</sub>K<sub>50</sub> o‘g‘it dozalarida kuzatildi. Ildizmeva sifati ham yaxshilandi, o‘rtacha shakar miqdori 5,8 %, quruq modda — 11,4 %.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sholg‘om (*Brassica rapa subsp. rapa L.*) Qoraqalpog‘istonning quruq va kontinental iqlim sharoitiga yaxshi moslashadi. U qisqa vegetatsiya davriga, sovuqqa chidamlilik va yuqori oziqaviy qiymatga ega. Eng maqbul hosildorlik sug‘orish me‘yori 700–800 m<sup>3</sup>/ga, o‘g‘it miqdori N<sub>80–100</sub>P<sub>50–60</sub>K<sub>40–50</sub> bo‘lganda olinadi. Sholg‘omni mintaqada sabzavot va yem-xashak ekini sifatida keng joriy etish, aholining oziq-ovqat xavfsizligini oshirish va chorvachilik bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6802687>
2. FAO Plant Genetic Resources Reports, 2022.
3. Jumaniyozov A. va boshq. “Qoraqalpog‘iston sharoitida sabzavot ekinlarining suvdan foydalanish samaradorligi”. Nukus, 2021.
4. Berdimuratov, S. “Karamdoshlar oilasiga mansub ekinlarning biologiyasi”. Toshkent, 2019.
5. Rakhmatov Anvar Mamatovich, Azizov Shavkat Shodievich, Usmanov Zafar Usmanovich. The Influence of the Timing of the Sowing Tournament Salad on the Biochemical Composition. // International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD). –2021.
6. Turdikulov B.T. Yangi salatbop sholg‘om Muyassar navining yaratilishi. O‘simliklar introduksiyasi: muammolari va istiqbollari./ konferensiya. 2003.